SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I4Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 4 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 4-son (Aprel, 2025). - 502 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Maxmudov Mansurjon Abdugʻopporovich*
TARIXIY ASARLAR VA ULARNI OʻRGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR ........ 12-17

*Qurbonov Xurshid Raupovich*
OʻZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN “MEHNAT ARMIYACHILARI” VA ULARNING TAʼMINOTI ........ 18-22

*Salayev Fazliddin Shamsiddin oʻgʻli*
OʻZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI ........ 23-28

*Abbasov Behzod Baxtiyorovich*
FARGʻONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XOʻJALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KOʻCHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965) ........ 29-35

*Mirzaliyev Ulugʻbek, Klichev Ulugʻbek*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR ........ 36-39

*Tursunova Gavhar Begmuradovna*
ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MAʼMURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) ........ 40-50

*Vaxobov Doston Abdumannob oʻgʻli*
IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOGʻLIQNI SAQLASH XODIMLARINING GʻALABAGA QOʻSHGAN HISSASI ........ 51-54

*Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi*
OʻZBEKISTONDA MAKTAB TAʼLIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI OʻZGARISHLAR (1991-2024 yy) ........ 55-59

*Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich*
QUYI SIRDARYOBOʻYI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI ........ 60-64

*Yoʻldosheva Gulbahor Nuriddinovna*
MUSTAQILLIK YILLARIDA OʻRTA UMUMTAʼLIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA) ........ 65-69

*Mardiyeva Guzal Karimovna*
XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI OʻRNI ........ 70-75

*Narziyev Rustambek Xaydarovich*
HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR ........ 76-80

*Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI ........ 81-87

*Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna*
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI ........ 88-92

*G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov*
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI ........ 93-99

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Abdullayev Zafarbek Safibullayevich*
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI ........ 100-116

*Юлдашева Надира Викторовна*
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА» ........ 117-123

*Maxsudov Sherzod Solijonovich*
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ........ 124-128

*Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li*
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH ........ 129-135

*Xadimova Aziza Abdufattoyevna*
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI ........ 136-145

*Tashpulatov Giyos Toxirovich*
XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) ........ 146-159

*Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna*
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI ........ 160-164

*Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi*
"QUTIDA RO'YXATGA OLISH" (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH ........ 165-169

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Komilov Ro'zi Rabiyevich*
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI ........ 170-172

*Хакимов Эркин*
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ ........ 173-180

*Usmonova Laylo Raxmatullayevna*
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI ........ 181-185

*Karimov Yo'ldosh Ergashevich*
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI ........ 186-191

*Агзамходжаева Шахноза Саидматмабовна*
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ) ........ 192-195

*Rustamov Ramz Rizoqulovich*
ZAMONAVIY IQTISODIY TARGʻIBOT VA UNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 197-204

*Evatov Salimjon*
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFIY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI ........ 205-209

*Turobov Yorqinjon Yoqub oʻgʻli*
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI ........ 210-213

*Toshpulatov Odil Nodirovich*
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI ........ 214-217

*Kunisheva Nadira Julanovna*
"IJTIMOIY BAGʻRIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI ........ 218-223

*Eshpulatov Inoyat*
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT ........ 224-231

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna*
OʻZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI ........ 232-236

*Алиева Эльвина Аметовна*
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ ........ 237-243

*Usmanova Sevara*
INGLIZ VA OʻZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY TOʻQIMA ........ 244-251

*Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich*
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI ........ 252-260

*Daminova Rahima Malikovna*
ATOYI SHE'RIYATINING BADIIY LATOFATI ........ 261-266

*Yusupov Asror*
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV ........ 267-271

*Ruziyeva Nasiba Kenjayevna*
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI ........ 272-276

*Batirkhanova Madina Oybekovna*
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION ........ 277-281

*Sirojiddinova Shakhribonu*
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS ........ 282-285

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Xodjiev Yunus Muxitdinovich*
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 286-292

*Wang Cong*
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION ........ 293-300

*Ли Адик*
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 301-310

*Abdurashidova Zarina Turg‘un qizi*
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI ........ 311-315

*Axmatov Olimjon Odilovich*
“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O‘TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI” ........ 316-322

*Xatamov To‘lqin Tojiddinovich*
KUCHLI TA’SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI ........ 323-329

*Kuchimova Shaxlo*
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI ........ 330-337

*O’rinova Dilshoda Adhamovna*
OILAVIY ZO‘RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO‘YICHA FARG‘ONA TAJRIBASI ........ 338-347

*Geng Zhimin*
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT...... 348-351

*Xidirov Mexroj Qilich o‘g‘li*
ELEKTRON TO‘LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR ........ 352-357

*Тулаганов Элмурод*
ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ........ 358-367

*Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon*
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI ........ 368-374

*Abbosov Mirsulton Mirsharof o‘g‘li*
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN’IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI ........ 375-382

*Mamatov Islom Qosim o'g'li*
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR ........ 383-392

*Kamilov Oybek*
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI ........ 393-402

*Абророва Камола Саидмухторовна*
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ........ 403-410

*Ne'matova Muborak Odiljonovna*
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) ........ 411-418

*Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi*
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"........ 419-427

*Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna*
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR ........ 428-432

*Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat*
VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI ........ 433-441

*Jumanazarov Faxriddin Erkinovich*
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI........ 442-448

*Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li*
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI ........ 449-457

*Mansurov Arslon Askarovich*
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI ........ 458-463

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich*
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI ........ 464-470

*Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi*
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR ........ 471-475

*Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira*
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR ........ 476-481

*Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich*
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI ........ 482-485

*Mirsanova Moxira Xusniddin qizi*
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIIYATI ........ 486-491

*Tursinova Zoxida Sharabidinovna*
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI ........ 492-496

*Раббимова Нодира Таштемировна*
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ ........ 497-501

SCIENCE PROBLEMS.UZ
Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 16 March 2025
**Accepted:** 5 April 2025
**Published:** 15 April 2025

*Article / Original Paper*

# SYSTEMATIZATION OF PRINCIPLES FOR SUCCESSFUL OPERATION OF THE TOURISM AND RECREATION CLUSTER

**Khaitov Okhunjon**
Associate Professor,
Kattakurgan Branch of Samarkand State University

**Abstract.** This article serves to increase the number of cluster participants, increase tourism and money flows, and ensure employment. The role of a tourist innovation cluster in the development of the regional economy is shown. In this process, a set of organizations of various forms of ownership that carry out their activities to facilitate the use of new technologies, share risks, and create and distribute new knowledge, products, and technologies that contribute to increasing the competitiveness of the region is scientifically and theoretically highlighted.

**Keywords:** tourism innovation cluster, employment rate, subsidizing entrepreneurship and local production, innovative product, achieving competitiveness in the tourism market, tourism industry.

# TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH

**Xaitov Oxunjon Nomoz oʻgʻli**
Samarqand davlat universiteti
Kattaqoʻrgʻon filiali dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada klaster ishtirokchilari sonining koʻpayishi, sayyohlik va pul oqimining oshishi, aholi bandligini taʼminlashga xizmat qilmoqda. Hududlar iqtisodiyoti rivojlanishida turistik innovatsion klaster oʻrni koʻrsatib oʻtilgan. Bu jarayonda yangi texnologiyalardan foydalanishni osonlashtirish, risklarni taqsimlash, hududning raqobatbardoshligini oshirishga oʻzaro hissa qoʻshadigan yangi bilimlar, mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish, tarqatish boʻyicha oʻz faoliyatini amalga oshiradigan turli xil mulkchilik shaklidagi tashkilotlar majmui ilmiy- nazariy jihatdan yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** turistik innovatsion klaster, aholi bandlik darajasi, tadbirkorlik va mahalliy ishlab chiqarishni subsidiyalash, innovatsion mahsulot, turizm bozorida raqobatbardoshlikka erishish, turizm industriyasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N20

**Kirish.** Turizm va rekreatsiya sohalari bugungi kunda dunyo boʻylab iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohalarning samarali rivojlanishi, turistik va rekreatsion xizmatlar sifatining oshishi, iqtisodiy daromadning koʻpayishi, yangi ish oʻrinlarining yaratilishi va turizmni barqaror boshqarish kabi masalalar doimo dolzarb boʻlib qolmoqda. Turistik va rekreatsion klasterlar ushbu sohalarda innovatsion yondashuvlarni qoʻllab-quvvatlab, mintaqaviy rivojlanishni yanada jadallashtirishda muhim rol oʻynaydi.

Turistik va rekreatsion klasterlar — bu turizm va rekreatsiya resurslarini birlashtirgan, oʻzaro manfaatdor boʻlgan subyektlarning guruhidir. Klasterlar, oʻz navbatida, samarali faoliyat yuritishlari uchun aniq tamoyillarga asoslanadi. Klasterning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi

uchun muhim boʻlgan tamoyillar orasida: resurslarni birlashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish, mintaqaviy va xalqaro darajadagi hamkorliklarni rivojlantirish, ekologik barqarorlikni taʼminlash va mijozlar ehtiyojlarini toʻliq qondirish kabi aspektlar mavjud.

Ushbu mavzu doirasida, turistlik va rekreatsion klasterlarning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur tamoyillar tizimini tizimli yondashuv orqali oʻrganish, ularni optimallashtirish va ilgʻor tajribalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Yangi tamoyillarni ishlab chiqish, mavjud tizimlarni takomillashtirish va klasterlararo oʻzaro aloqalarni mustahkamlash orqali turizm va rekreatsion sohalarda yuqori darajada muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Shu bilan birga, bu yoʻnalishdagi innovatsion yondashuvlar va ilgʻor amaliyotlar nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashga ham xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda turistik va rekreatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur boʻlgan tamoyillarning tizimlashtirilishi, ularning amaliyotga tatbiq etilishi va bu jarayondagi asosiy omillarni oʻrganish nazarda tutilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tadqiqot ishlarini olib borish jarayonlarida turizm sohasi hamda innovatsion klaster tuzilmalarining ishlash tamoyillarini aniqlab olishning ilmiy-nazariy jihatlardan olib borilgan yondashuvlarga eʼtibor bersak, A.T.Dutovaning yondashuviga koʻra asosiy tamoyil sifatida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish taklif qilinadi. Xorijiy yondashuvlarda turizm sohasida davlat-xususiy sheriklik turizm bozorining turli maqsadli guruhlarini birlashtirgan boshqaruv kompaniyasini yaratish shaklida koʻrib chiqiladi.

V.S.Novikov innovatsion turizm klasterlari faoliyatining globalizatsiya tamoyili, yaʼni "iqtisodiy masalalardan tashqari, ekologiya va xavfsizlik muammolari"ga asoslangan "global innovatsiyalardan mahalliy oʻziga xoslikda foydalanish" haqida yozadi .

V.A.Minaev oʻz-oʻzini sinxronlashtirish tamoyilini kiritadi, bu "turistik va rekreatsion tuzilmaning maʼmuriy islohotga uchramasdan", "pastdan" oʻzini oʻzi tashkil qilish qobiliyatini nazarda tutadi.

Turistik klasterlar faoliyatining toʻgʻridan-toʻgʻri tamoyillari: uzluksizlik, rivojlanishning muqobil yoʻllari, sinergiya, moslashuvchanlik va integratsiya tamoyillari, tashkil etish va standartlashtirish, innovatsiyalarni oʻz ichiga oladi.

N.A.Kamenskix turistik va rekreatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyatining quyidagi tamoyillari haqida yozadi: barcha potensial manfaatdor tomonlarning muvofiqlashtirilgan faoliyatini taʼminlash, boshqaruv faoliyatining oʻzaro bogʻlangan bloklarini yagona jarayonga birlashtirish, bozorda eksklyuziv sifatida joylashish .

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda turistlik va rekreatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillarini tizimlashtirish va ularni amaliyotda qoʻllashda yuzasidan klasterlar faoliyatini muvaffaqiyatli yuritish tamoyillari va ularning tizimlashtirilishiga oid ilgʻor yondashuvlar, turistik tashkilotlar, mehmonxona va restoran egalaridan, turizm agentliklari va mutaxassislardan soʻrovnoma, klasterlarda ishlayotgan menejerlar, turistlar va ekspertlar bilan chuqur intervyular oʻtkazilgan.

**Tahlil va natijalar.** Klaster ishtirokchilari sonining koʻpayishi, sayyohlik va pul oqimining oshishi, aholi bandligini taʼminlashga xizmat qilmoqda. Yangi turistik hududlar, ular rivojlanib, asta-sekin anʼanaviy markazlar bilan sayyohlik oqimlari uchun raqobatlasha boshlaydi, ular ham milliy turistik bozorda raqobatbardosh mavqeni mustahkamlashga harakat qiladilar. Hududlarda turistik xizmatlarning barcha turlarini rivojlantirish,

ragʻbatlantirish va kengaytirishga innovatsion yondashuvlarni qoʻllash masalalari, ularning maqsadi sayyohlarda eng qulay va kuchli taassurotlarni shakllantirishdan iborat boʻlib, tobora dolzarb boʻlib bormoqda. Bu tegishli yangi turistik mahsulotni yaratish, targʻib va amalga oshirish boʻyicha hamkorlik va faoliyatni muvofiqlashtirish vositalaridan foydalanishga asoslangan hudud turizm bozorining barcha ishtirokchilari oʻrtasida aniq oʻzaro hamkorlik tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Shunga koʻra, turizm sohasini tashkil etish va rivojlantirishga davlat va hududiy miqyosda innovatsion yondashuvlarni oʻzlashtirish zarur. Klaster yondashuvi zamonaviy fan va amaliyotdagi ana shunday yondashuvlarga egadir.

Asosiysi, muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan hududiy klaster siyosati innovatsion rivojlanishning jadallashishiga olib kelishi mumkin. Yangi obyektlar va xizmatlarni yaratish, turizmni oʻzining yoki qarzga olingan texnologiyalar asosida chuqur texnologik modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirishni amalga oshirish hamda yangi shaklda ishlash uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan turizm klasterlari faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan tavsiflanadi: tashkiliy jihatdan bogʻliq boʻlgan uchta komponentning mavjudligi: amaliyotga yoʻnaltirilgan fan, turizmning innovatsion sohasi, taʼlimni rivojlantirish.

Turli xil yondashuvlarni umumlashtirish natijasida turistik klasterlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun quyidagi tamoyillarni ajratib koʻrsatish mumkin.

- davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritish;
- oʻz-oʻzini rivojlantirish va oʻz-oʻzini muvofiqlashtirish;
- isteʼmolchining ehtiyojlarini qondirish;
- axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish;
- tizimli aloqalar, hamkorlik va integratsiya;
- maqsadlarni belgilash hamda maqsadlarning izchilligi;
- turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish;
- resurslardan muvozanatli foydalanish;
- ochiqlik;
- maqsadli guruhlar manfaatlarining sinergiyasi va muvozanati;
- moslashuvchanlik;
- innovatsiyalar;
- maqsadli guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- bozorda joylashish, hamkorlik qilish.

1-jadvalda turizm klasterining muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillarining quyidagi guruhlarga boʻlingan tizimliligi keltirilgan:

- muvaffaqiyatli turistik mahsulotni shakllantirish tamoyillari;
- tashqi muhitda muvaffaqiyatli munosabatlarni oʻrnatish tamoyillari;
- klasterning ichki muhitida oʻzaro taʼsir qilish tamoyillari;
- turistik klaster faoliyatining tashkiliy tamoyillari.

**1-jadval**

**Turistik va rekreatsion klasterning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillarini tizimlashtirish**

| Tamoyillar guruhi | Tamoyillar |
|---|---|
| Muvaffaqiyatli turistik mahsulotni shakllantirish | - diversifikatsiya<br>- innovatsiya<br>- joylashishni aniqlash |
| Tashqi muhitda muvaffaqiyatli munosabatlarni oʻrnatish | - globalizatsiya<br>- isteʼmolchining ehtiyojlarini qondirish<br>- AKTdan foydalanish<br>- ochiqlik<br>- moslashuvchanlik |
| Ichki muhitda muvaffaqiyatli oʻzaro munosabat | - resurslardan foydalanishdagi muvozanat<br>- tizimli munosabatlar<br>- sinergiya va manfaatlar muvozanati<br>- hamkorlik |
| Turistik klaster faoliyatining tashkiliy tamoyillari | - maqsadni belgilash va maqsadlarning izchilligi<br>- davlat-xususiy sheriklik<br>- oʻz-oʻzini rivojlantirish<br>- maqsadli guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish |

Innovatsion klasterlarning tizimli va tarmoq yondashuvlari doirasida shakllanish va faoliyat yuritish tamoyillarini koʻrib chiqadigan boʻlsak, bu tamoyillar: izchillik va murakkablik, integratsiya tamoyili, korporatizm tamoyili, oʻz-oʻzini rivojlantirish tamoyillari, resurslardan teng foydalanish, ijtimoiy harakatni tezlashtirish, axborotning erkin oqimi, oʻzarolik tamoyili.

V.S.Prosalova innovatsion klasterni boshqarish tamoyillarini tahlil qilgan: loyihalarni boshqarish, resurslardan kompleks va samarali foydalanish, tashkiliy tuzilmani optimallashtirish va moslashtirish, yaxlitlik va iyerarxiya. Bundan tashqari, muallif ilmiy adabiyotlarda keltirilgan tamoyillarni aniqlab bergan va ularni tasniflashda muallifning yondashuvi boʻyicha samaradorlik prinsipi, resurslardan jamoaviy foydalanish tamoyili, mafkuraviy tamoyil, klasterning innovatsion tuzilishini taʼminlash prinsipi, innovatsion faoliyatning strategik yaxlitligi tamoyillarini kiritgan.

Innovatsion klasterlarni yaratish va qoʻllab-quvvatlashning quyidagi tamoyillari keltirilgan:

– tadbirkorlik tashabbusi bilan qoʻshma klaster loyihalarini amalga oshirish va hokimiyat tomonidan qoʻllab-quvvatlash;
– klasterga kirish uchun toʻsiqlarning yoʻqligi (ishonchsiz obroʻdan tashqari);
– hukumat va biznes oʻrtasidagi konstruktiv muloqot;
– loyihalarni alohida korxona yemas, balki klaster manfaatlarini koʻzlab amalga oshirish.

**2-jadval**

**Turizm va innovatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillarini taqqoslash**

| Tamoyil | Turizm klasteri | Innovatsion klaster |
|---|---|---|
| Davlat-xususiy sheriklik | + | + |
| Globalizatsiya | + | + |
| Oʻz-oʻzini rivojlantirish | + | + |
| Isteʼmolchining ehtiyojlariga muvofiqligi | + | - |
| AKTdan foydalanish | + | - |
| Aloqalar va integratsiyaning izchilligi | + | + |
| Maqsadlarni belgilash va maqsadlarning izchilligi | + | - |
| Diversifikatsiya | + | - |
| Resurslardan muvozanatli foydalanish | + | + |
| Ochiqlik va oshkoralik | + | + |
| Maqsadli guruhlar manfaat-lar sinergiyasi va muvozanati | + | - |
| Moslashuvchanlik | + | + |
| Innovatsiya | + | + |
| Maqsadli guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish | + | - |
| Bozorda joylashishni aniqlash | + | - |
| Hamkorlik | + | + |
| Barqarorlik | - | + |
| Kirish toʻsiqlari yoʻq | - | + |
| Strategik yoʻnaltirilganlik | - | + |

Bundan tashqari, mualliflar oʻz ishlarida innovatsion klasterni shakllantirish tamoyillarini keltirib oʻtadilar, ular quyidagilardan iborat: davlat-xususiy sheriklik, izchillik, maqsadni belgilash, qarorlarni jamoaviy qabul qilish, uzluksizlik, moslashuvchanlik, umumiy manfaatlar, faoliyat barqarorligi, oʻzaro taʼsir va integratsiya.

Turizm innovatsion klasterlarining ishlash tamoyillarini ikki yondashuv tutashgan joyda aniqlash uchun turizm klasteri va innovatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillarini taqqosladik (2-jadval).

Bizning fikrimizcha, innovatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillarini aniqlashga yondashuvlarni umumlashtirish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi:

– turizm va innovatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillari bir xil, xususan, bular davlat-xususiy sheriklik, globallashuv, oʻz-oʻzini rivojlantirish, izchillik va integratsiya, resurslardan teng foydalanish, axborotni erkin targʻib qilish, moslashuvchanlik, mustaqillik va hamkorlik kombinatsiyasi;
– turizm industriyasi ekspertlari tomonidan qayd etilmagan innovatsion klasterlarning muvaffaqiyatli shakllanishning oʻziga xos tamoyillari boʻlib, strategik yoʻnaltirilganlik, barqarorlik va kirish toʻsiqlarining yoʻqligi hisoblanadi.

Turizm klasterlari boʻyicha xorij tajribasini oʻrganish hamda rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqishning ilmiy yondashuvlarini taqqoslash va integratsiyalash asosida turizm klasterlari va innovatsion klasterlarning faoliyati, ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillarini tasnifladik (3-jadval).

**1.3-jadval**

**Turizm klasteri va innovatsion klasterning samarali rivojlanish tamoyillari**

| № | Tamoyil | Tamoyilning tavsifi |
|---|---|---|
| 1. | Oʻziga xoslik tamoyili | Mahalliy an’analarga, tarixga va hudud resurslarining oʻziga xosligiga tayanish |
| 2. | Barqarorlik tamoyili | Turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish orqali barqaror rivojlanish |
| 3. | Sinergiya tamoyili | Klaster a’zolarining sheriklik, oʻzaro ta’sir va funksional bogʻliqlik asosida integratsiyalashuvi |
| 4. | Innovatsiya tamoyili | Turistik xizmatlar koʻrsatishga ijodiy yondashish, iste’molchilar, ishlab chiqaruvchilar va jamiyatning oʻzaro hamkorligini kuchaytirish |
| 5. | Axborotlashtirish tamoyili | Turizmni rivojlantirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish |
| 6. | Davlat ishtiroki tamoyili | Turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik |
| 7. | Yaxlitlik tamoyili | Yaxlit boshqaruv tizimi, strategik maqsadlar va taktik vazifalarning birligi |
| 8. | Moslashuvchanlik tamoyili | Teskari aloqa, ichki va tashqi muhitdagi oʻzgarishlarga javob berishning uzluksizligi va oʻz vaqtidaligi |
| 9. | Ochiqlik tamoyili | Global jarayonlarni hisobga olish |

Shunday qilib, turizm sohasida innovatsiyalar klasterning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillari qoʻyidagilardan iborat:

– mahalliy an’analarga, tarixga va resurslarning oʻziga xosligiga tayanishdan iborat boʻlgan va globalizatsiya tamoyilini oʻz ichiga olgan oʻziga xoslik tamoyili;
– turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish orqali barqarorlik tamoyili;
– klaster a’zolarining integratsiyalashuvi, oʻzaro ta’siri va funksional bogʻliqligi birligida namoyon boʻladigan sinergiya tamoyili;
– turistik xizmatlar koʻrsatishga ijodiy yondashishdan iborat innovatsiya tamoyili;
– AKTdan keng foydalanishga qaratilgan axborotlashtirish tamoyili;
– davlat ishtiroki tamoyili, bu davlat-xususiy sheriklikka asoslanadi;
– kelishilgan maqsadlarga erishish uchun strategiya va taktikaning birligini nazarda tutuvchi yaxlitlik tamoyili;
– tashqi muhitdagi oʻzgarishlarga nisbatan turistik innovatsion klasterning moslashuvchanligini ta’minlaydigan moslashuvchanlik tamoyili;
– global jarayonlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ochiqlik tamoyili.

**Xulosa va takliflar.** Turistik va rekreatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, ularning tizimlashgan yondashuvlarini va innovatsion tamoyillarini qoʻllash orqali ta’minlanadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, turizm va innovatsion klasterlar oʻrtasida umumiy muvaffaqiyatli faoliyat yuritish tamoyillari mavjud boʻlib, ular davlat-xususiy sheriklik,

globalizatsiya, innovatsiya, resurslardan muvozanatli foydalanish, hamkorlik, moslashuvchanlik va strategik yoʻnaltirilganlik kabi asosiy tamoyillarni oʻz ichiga oladi.

Turizm klasterlarining samarali faoliyat yuritishini taʼminlashda hududiy va milliy miqyosda davlatning ishtiroki, yangi turistik mahsulotlarni yaratish va diversifikatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, hamkorlik va integratsiya tamoyillari muhim rol oʻynaydi. Shuningdek, klasterlararo oʻzaro taʼsir, resurslarni samarali boshqarish va klaster aʼzolarining birlashuvi orqali sinergiya yaratish muvaffaqiyatli faoliyatni taʼminlaydi. Yangi turistik hududlarning rivojlanishi, raqobatbardosh turizm mahsulotlarining yaratish va sayyohlar ehtiyojlarini qondirish, nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki aholi bandligini taʼminlash va yangi ish oʻrinlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion yondashuvlar va turizm klasterlari faoliyatining tizimli va tarmoq yondashuvlari zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, soha rivojlanishining yangi bosqichiga olib kelmoqda. Ushbu yondashuvlar, oʻz-oʻzini rivojlantirish, maqsadli guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtirish va maqsadlar izchilligini taʼminlash orqali raqobatbardosh turizm bozorida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Natijada, turistik va rekreatsion klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun innovatsion va tizimli yondashuvlar zarur boʻlib, bu nafaqat turizm mahsulotlarining sifatini oshirish, balki mahalliy aholi, hudud va mamlakat iqtisodiyoti uchun barqaror foyda keltiradi. Davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritish, innovatsiyalarni qoʻllash, va turizm klasterlarining raqobatbardoshligini oshirish masalalari bugungi kunda eng muhim vazifalar qatoriga kiradi. Shu bilan birga, turizm sohasidagi kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyat, oʻzaro integratsiya va hamkorlikning mustahkamlanishi, shuningdek, global jarayonlar va texnologik rivojlanishdan foydalanishga tayyor boʻlishga bogʻliqdir.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
2. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL:http://www.roman.by/r-78201.html
3. Safarova N.N. Milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga turizm sohasi taʼsirini prognozlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent 2018 y. -19-21 b.
4. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.
5. Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish // Diss. PhD. – T.: TDTU, 2021. 13-14-b.
6. O.N.Xaitov "Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish" Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.
7. https://lex.uz/docs/6102462

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).